

ANDIJON VILOYATIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI EKSPORTINING HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Muxtarov Maxmudjon Marifovich

Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti
E-mail: m.m.muxtorov@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada Andijon viloyatida to‘qimachilik sanoati eksportining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida eksport tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlar, tayyor mahsulotlar ulushining oshishi hamda qo‘shilgan qiymat darajasining kuchayishi statistik ma‘lumotlar asosida baholandi. Respublika va Andijon viloyati ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, hududda chuqur qayta ishlash jarayonlari jadallashgani aniqlandi. Tahlil natijalari tayyor tikuv mahsulotlari va trikotaj mahsulotlari eksporti barqaror o‘sganini ko‘rsatdi. Eksport geografiyasini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va klaster tizimini rivojlantirish zarurligi asoslandi. Tadqiqot yakunida to‘qimachilik sanoati eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, eksport salohiyati, qo‘shilgan qiymat, tayyor mahsulot, trikotaj mahsulotlari, klaster tizimi, eksport diversifikatsiyasi, innovatsion texnologiyalar, sanoat modernizatsiyasi.

Аннотация

В данной статье был проведен анализ современного состояния и тенденций развития экспорта текстильной промышленности Андижанской области. В ходе исследования на основе статистических данных были оценены структурные изменения в экспорте, рост доли готовой продукции и увеличение уровня добавленной стоимости. Проведен сравнительный анализ показателей Республики Узбекистан и Андижанской области, в результате которого установлено ускорение процессов глубокой переработки в регионе. Результаты анализа показали устойчивый рост экспорта готовой швейной и трикотажной продукции. Одновременно была обоснована необходимость расширения географии экспорта, внедрения инновационных технологий и развития кластерной системы. По итогам исследования разработаны практические рекомендации по повышению экспортного потенциала текстильной промышленности.

Ключевые слова: текстильная промышленность, экспортный потенциал, добавленная стоимость, готовая продукция, трикотажные изделия, кластерная система, диверсификация экспорта, инновационные технологии, модернизация промышленности.

Abstract

This article analyzed the current state and development trends of textile industry exports in Andijan region. The study evaluated structural changes in export

composition, the increase in the share of finished products, and the growth of value-added production based on statistical data. Comparative analysis of indicators for the Republic of Uzbekistan and Andijan region revealed the acceleration of deep processing processes in the region. The results showed stable growth in exports of ready-made garments and knitted products. At the same time, the necessity of expanding export geography, introducing innovative technologies, and improving the cluster system was substantiated. The study developed practical recommendations aimed at increasing the export potential of the textile industry and strengthening competitiveness in foreign markets.

Keywords: textile industry, export potential, value added, finished products, knitted products, cluster system, export diversification, innovative technologies, industrial modernization.

KIRISH

Global iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashda eksport salohiyatini oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati ko'p mehnat talab qiladigan, qo'shilgan qiymatni shakllantiradigan va eksportga yo'naltirilgan tarmoq sifatida mamlakat iqtisodiyotida alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasida, jumladan Andijon viloyatida ham to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda jadal rivojlanib, ishlab chiqarish hajmlari va eksport ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshmoqda. Biroq ushbu o'sishga qaramasdan, tarmoqda qo'shilgan qiymat ulushining yetarli emasligi, eksport geografiasining cheklanganligi, xom ashyoga bog'liqlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining turlicha ekanligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi, raqobatning kuchayishi hamda xalqaro standartlar talablarining keskinlashuvi ushbu sohada eksport faoliyatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa Andijon viloyati to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini chuqur tahlil qilish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishni talab etadi.

To'qimachilik sanoati eksporti, uning raqobatbardoshligi va qiymat zanjiridagi o'rni jahon iqtisodiy adabiyotlarida keng tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar sanoat siyosatini shakllantirish, eksport diversifikatsiyasi va hududiy iqtisodiy rivojlanishni baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Porter, M. E. milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi klaster yondashuvi asosida shakllanishi nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, sanoat tarmoqlarining hududiy konsentratsiyasi, ya'ni klasterlashuvi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni kuchaytirish hamda eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi¹ deb ta'kidlagan. Mazkur konsepsiya asosan milliy miqyosda ishlab chiqilgan bo'lib, uning regional darajadagi amaliyotda qo'llanilishi va empirik tahlili yetarli darajada keng o'rganilmagan. Ayniqsa, hududiy sanoat tarkibi va eksport

¹ Porter, M. E. "The Competitive Advantage of Nations" The Free Press, 1990, p. 77-120

strukturasini bilan bog'liq masalalar chuqur statistik asosda tadqiq etilmagan bo'lsa, Krugman, P. iqtisodiy geografiya, transport xarajatlari va xalqaro savdo oqimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy iqtisodiy modellar orqali tahlil qilgan, muallif aglomeratsiya effekti va bozorga yaqinlikning ishlab chiqarish joylashuviga ta'sirini asoslab, savdo oqimlarining fazoviy taqsimlanishini izohlab bergan¹. Tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat tizimlari, xususan Markaziy Osiyo hududlari misolida tarmoqlar kesimida empirik tahlillar amalga oshirilmagan hamda regional eksport dinamikasi yetarli darajada o'rganilmagan.

V.A. Osipov yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini eksport qilishning afzalliklarini yoritib, texnika va texnologiyalarni qo'shimcha dasturiy yoki konsalting xizmatlari orqali yetkazib berish orqali eksport salohiyatini muntazam yuqori darajada ushlab turish imkoniyatlarini ta'kidlagan

H.N. Ahmad Hamidi, N. Khalid, Z.A. Karim va M.R.K.V. Zainuddinlar o'z tadqiqotlarida muayyan tarmoqlar faoliyati natijalariga tayanadigan holda mahsulot eksporti salohiyatini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Mualliflar fikriga ko'ra, eksport salohiyati faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki tarmoq ichidagi resurslardan samarali foydalanish, mahsulot sifati va bozorga moslashuv darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Ular tarmoq samaradorligini oshirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligini asoslab bergan. Biroq mazkur yondashuvda makroiqtisodiy tashqi omillar, xususan global bozordagi o'zgarishlar va tashqi raqobat muhiti ta'siri nisbatan cheklangan darajada yoritilgan.

E.A. Shutayeva va V.V. Pobirchenko o'z ishlarida global bozor konyunkturasining o'zgarishi eksport imkoniyatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qilganlar². Ularga ko'ra, tashqi bozorlardagi talab va narx dinamikasi sanoat tarmoqlarining rivojlanish strategiyasiga bevosita ta'sir qiladi hamda eksport salohiyatidan foydalanish darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Mualliflar tarmoqni intensiv rivojlantirish zaruratini ta'kidlab, resurslardan foydalanish samaradorligi oshmagan sharoitda eksport o'sishi barqaror bo'lmasligini ko'rsatganlar. Biroq ularning tadqiqotlarida regional darajadagi (masalan, viloyat kesimidagi) sanoat strukturasini va uning institutsional xususiyatlari yetarlicha tahlil qilinmagan.

V.A. Osipov esa yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini eksport qilishning strategik afzalliklarini asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra, eksport salohiyatini yuqori darajada ushlab turish uchun faqat mahsulotni sotish emas, balki texnika va texnologiyalar bilan birga qo'shimcha xizmatlar - dasturiy ta'minot, texnik qo'llab-quvvatlash va konsalting xizmatlarini ham eksport qilish muhim ahamiyat kasb etadi³. Bu yondashuv eksport strukturasini diversifikatsiya qilish va qo'shilgan qiymatni oshirish imkonini beradi. Muallif asosan yuqori texnologiyali tarmoqlarga e'tibor

¹ Krugman, P. "Geography and Trade" MIT Press, 1991, p.45-90-betlar.

² Шутаева Е. А., Побирченко В. В., "Экспортный потенциал виноградарско винодельческой отрасли Республики Крым", Геополитика и экогеодинамика регионов, Том 11(21). Вып. 1. 2025 г. С. 246-259.

³ Осипов Виктор Алексеевич, "Методические подходы к определению экспортного потенциала высокотехнологической продукции машиностроения", Территория новых возможностей. Вестник Владивостокского государственного университета. 2024. Т. 16, № 4. С. 37-46, <https://doi.org/10.29039/2949-1258/2024-4/037-046>

qaratgan boʻlib, anʼanaviy sanoat tarmoqlari, xususan toʻqimachilik sanoati misolida ushbu modelni qoʻllash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Ushbu yondashuvlarda umumiy jihati sifatida eksport salohiyatini oshirishda tarmoq samaradorligi, tashqi bozor konyunkturasi va texnologiyalar integratsiyasi muhim omillar ekanligi taʼkidlangan boʻlib, biroq ular oʻrtasida metodologik farqlar mavjud. Birinchi guruh mualliflar ichki tarmoq resurslariga asosiy eʼtibor qaratgan boʻlsa, Shutayeva va Pobirchenko tashqi bozor taʼsirini ustuvor omil sifatida koʻradi. Osipov esa texnologik modernizatsiya va qoʻshilgan xizmatlar eksportini asosiy rivojlanish omili sifatida talqin qiladi.

Eksport salohiyatini oshirishning samarali modeli ushbu uch yoʻnalishning integratsiyasini talab qiladi. Yaʼni, ichki tarmoq samaradorligi, tashqi bozor konyunkturasi moslashuv va yuqori texnologiyalar hamda xizmatlar eksporti bir-biri bilan uzviy bogʻliq holda qaralishi lozim. Ammo mavjud tadqiqotlarda ushbu uch omilni birlashtirgan holda kompleks regional modellar, ayniqsa toʻqimachilik sanoati misolida, yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, Andijon viloyati misolida toʻqimachilik sanoati eksport salohiyatini baholashda yuqoridagi yondashuvlarni integratsiya qilish, yaʼni ichki ishlab chiqarish samaradorligi, tashqi bozor taʼsiri va innovatsion texnologiyalar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda Andijon viloyati toʻqimachilik sanoati eksportining holati va rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun statistik, qiyosiy va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi hamda Andijon viloyati statistika boshqarmasining 2015–2024-yillarga oid rasmiy maʼlumotlari asosiy axborot manbasi sifatida qoʻllanildi. Eksport tarkibidagi oʻzgarishlar ip-kalava, tayyor tikuv mahsulotlari, trikotaj matolari, gazlama va paypoq mahsulotlari ulushi kesimida oʻrganildi. Respublika va Andijon viloyati koʻrsatkichlari oʻzaro qiyoslanib, hududiy farqlar hamda tarkibiy siljishlar aniqlandi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan klaster yondashuvi, eksport diversifikatsiyasi va aglomeratsiya nazariyalari asosida toʻqimachilik sanoati eksportining rivojlanish omillari baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda mantiqiy tahlil va ilmiy xulosalash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Andijon viloyatida toʻqimachilik sanoati mahsulotlari eksporti barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻlib, yildan-yilga uning hajmi va tarkibiy tuzilishida ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Bu holat hududda amalga oshirilayotgan sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda eksportga yoʻnaltirilgan siyosatni izchil amalga oshirish natijasi sifatida baholanadi (1-jadval).

Respublika miqyosida 2015-yilda ip kalava ulushi 68,5% ni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu koʻrsatkich 43,5% gacha pasaygan. Bu holat xom ashyo eksportidan tayyor va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlarga bosqichma-bosqich oʻtish jarayonini anglatadi. Tayyor tikuv mahsulotlari ulushi 13,0% dan 39,6% gacha

oshgan bo‘lib, bu tarmoqda industrial qayta ishlash darajasining sezilarli kuchayganini ko‘rsatadi. Trikotaj matolari va gazlamalar ulushida esa nisbatan barqaror, ammo cheklangan o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Andijon viloyatida to‘qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibi¹.

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2015	2017	2020	2021	2022.	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha							
Ip kalava ulushi, foizda	68,5	55,7	56,1	39,5	45,8	41,2	43,5
Tayyor tikuv mahsulotlari ulushi, foizda	13,0	31,3	30,2	41,5	37,2	40,7	39,6
Trikotaj matolari ulushi, foizda	7,2	5,3	5,3	7,6	9,7	10,4	10,3
Gazlamalar ulushi, foizda	8,9	5,9	5,8	8,5	5,5	5,7	5,1
Paypoq mahsulotlarini ulushi, foizda	2,4	1,8	2,6	2,9	1,8	2,0	1,5
Andijon viloyati bo‘yicha							
Ip kalava ulushi, foizda	53,0	52,4	51,1	45,1	23,8	26,4	31,2
Tayyor tikuv mahsulotlari ulushi, foizda	40,3	40,0	40,7	44,7	65,7	59,2	54,7
Trikotaj matolari ulushi, foizda	5,8	6,6	7,4	8,5	9,0	12,1	12,6
Gazlamalar ulushi, foizda	0,8	1,0	0,9	1,5	1,3	2,1	1,1
Paypoq mahsulotlarini ulushi, foizda	-	-	-	0,2	0,2	0,2	0,3

Andijon viloyati kesimida esa struktur o‘zgarishlar yanada keskin xarakterga ega. 2015-yilda ip kalava ulushi 53,0% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 31,2% gacha pasaygan. Shu davr mobaynida tayyor tikuv mahsulotlari ulushi 40,3% dan 54,7% gacha oshgan, 2022-yilda esa eng yuqori qiymat - 65,7% ga yetgan. Bu holat Andijon viloyatida to‘qimachilik sanoatida chuqur qayta ishlash bosqichiga o‘tish jarayoni jadal kechayotganini ko‘rsatadi.

Trikotaj mahsulotlari ulushi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 5,8% dan 12,6% gacha oshgan. Bu esa diversifikatsiya va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish kengayib borayotganini anglatadi. Gazlama va paypoq mahsulotlari ulushi esa nisbatan past va barqaror o‘zgarishlarga ega bo‘lib, ushbu segmentlar hali to‘liq rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Andijon viloyatida to‘qimachilik sanoati eksporti tarkibida ijobiy tarkibiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Xususan, tayyor tikuv mahsulotlari ulushining respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘sishi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

hududda sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda qo‘shilgan qiymat yaratishga yo‘naltirilgan iqtisodiy mexanizmlar samarali amalga oshirilayotganini tasdiqladi. Ip-kalava eksporti ulushining kamayib borishi xomashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o‘tilayotganini anglatadi.

Tahlillar Andijon viloyatida to‘qimachilik sanoatining chuqur qayta ishlash bosqichiga kirganini va eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi ortib borayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, trikotaj mahsulotlari eksportining barqaror o‘sishi tarmoqda diversifikatsiya jarayonlari faollashayotganini ifodalaydi. Gazlama va paypoq mahsulotlari ulushining nisbatan pastligi esa ushbu segmentlarda ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha iqtisodiy salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot asosida Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati eksporti samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali qo‘shilgan qiymat darajasini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bunda kiyim-kechak, zamonaviy dizayndagi va milliy brend asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish eksport daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarur. Trikotaj, funksional va innovatsion to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish mahsulot sifati hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, xalqaro bozorlarda hududiy korxonalar brendini shakllantirish va marketing strategiyalarini kuchaytirish eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Yevropa va Osiyo bozorlariga yo‘naltirilgan logistika va marketing tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, klaster tizimini yanada takomillashtirish, ya’ni xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot eksportigacha bo‘lgan yagona integratsiyalashgan zanjirni rivojlantirish eksport samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Andijon viloyatida to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hududning eksport salohiyatini mustahkamlash hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter, M. E. “The Competitive Advantage of Nations” The Free Press, 1990, p. 77–120
2. Krugman, P. “Geography and Trade” MIT Press, 1991, p.45–90-betlar.

3. Ahmad Hamidi, H.N.; Khalid, N.; Karim, Z.A.; Zainuddin, M.R.K.V. Technical Efficiency and Export Potential of the World Palm Oil Market. *Agriculture* 2022, 12, 1918. <https://doi.org/10.3390/agriculture12111918>.

4. Шутаева Е. А., Побирченко В. В, “Экспортный потенциал виноградарско винодельческой отрасли Республики Крым”, *Геополитика и экогеодинамика регионов*, Том 11(21). Вып. 1. 2025 г. С. 246–259.

5. Осипов Виктор Алексеевич, “Методические подходы к определению экспортного потенциала высокотехнологической продукции машиностроения”, *Территория новых возможностей. Вестник Владивостокского государственного университета*. 2024. Т. 16, № 4. С. 37–46, <https://doi.org/10.29039/2949-1258/2024-4/037-046>

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. <https://stat.uz>

7. Marifovich, M. M. (2023). The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises. *Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenössische Wissenschaft*, (68).

8. Mukhtarov, M. (2023). Ways to increase the economic efficiency of textile industry.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**